


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyası bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 772 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 031 ta (26,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 14 668 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-mart holatiga ko'ra 14 668 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 30,1 % savdo, 13,1 % sanoat, 9,6 % qurilish, 12,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,2 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 21,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlikda		01.03.2020 yil	
	01.03.2019 y.	01.03.2020 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	11 637	14 668	126,0	100,0

shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 433	1 856	129,5	12,7
Sanoat	1 440	1 921	133,4	13,1
Qurilish	1 104	1 403	127,1	9,6
Savdo	3 112	4 413	141,8	30,1
Tashish va saqlash	599	623	104,0	4,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	700	911	130,1	6,2
Axborot va aloqa	165	194	117,6	1,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	133	161	121,0	1,1
Boshqa turlari	2 951	3 186	108,0	21,7

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (4 283 ta), Sirdaryo (2 186 ta), Sayxunobod (1 180 ta) va Guliston (1 113 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (345 ta), Sardoba (649 ta), hamda Oqoltin (761 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 13 768 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2 932 ta (27,1 %) ga o'sgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 29,9 % savdo, 13,2 % sanoat, 9,7 % qurilish, 12,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saqlash, 1,3 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 22,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3 999 ta), Sirdaryo (1 968 ta), Sayxunobod (1 155 ta) Boyovut (1 078 ta) va Mirzaobod (1 092 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (316 ta), Sardoba (630 ta) hamda Oqoltin (725 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil yanvar-fevral oylarida 772 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning shu davriga nisbatan 34,0 foizga ko'pdir.

Yanvar–fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning 2016-2020-yillar kesimida soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (159 ta), Oqoltin (97 ta), Sirdaryo (91 ta) va Boyovut (75 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (19 ta), Xovos (40 ta) hamda Guliston (50 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (399 ta), sanoat (105 ta), qurilish (44 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (101 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lqnini saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (6 ta), axborot va aloqa (8 ta) hamda tashish va saqlash (7 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Tijorat korxonalari
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil 1-mart holatiga 11 652 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2 965 ta, oilaviy korxonalar - 242 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 8 146 ta va boshqalar 299 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiyligi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Mas'uliyati
cheklangan jamiyati**



**Xususiy
korxona**



**Oilaviy
korxona**




**Unitar
korxona**



**Aksiyadorlik
jamiyati**



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 164 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 ta ga yoki 42,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokida 164 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (53 ta), Guliston shahri (37 ta), Yangiyer shahri (21 ta) va Sayxunobod (10 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami esa Shirin shahri (5 ta), Guliston (4 ta) hamda Oqoltin (3 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 109 tasi qo'shma korxonalar, 55 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %






Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	164	100,0
Oqoltin tumani	3	1,8
Boyovut tumani	7	4,3
Sayxunobod tumani	10	6,1
Guliston tumani	4	2,4
Sardoba tumani	7	4,3
Mirzaobod tumani	10	6,1
Sirdaryo tumani	53	32,3
Xovos tumani	7	4,3
Guliston shahar	37	22,6
Shirin shahar	5	3,0
Yangiyer shahar	21	12,8


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020-yil 1-mart holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11 603 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1-mart holatiga ko'ra qaraganda 32,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 480 tasi (30,0 %) Guliston shahri, 1 701 tasi (14,7 %) Sirdaryo, 978 tasi (8,4 %) Sayxunobod hamda 932 tasi (8,0 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11 603 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4 104 tasi (35,4 %) - savdo, 1 794 tasi (15,5 %) - sanoat, 1 333 tasi (11,5 %) - qurilish, 1 680 tasi (14,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 850 tasi (7,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 559 tasi (4,8 %) - tashish va saqlash, 172 tasi (1,5 %) – axborot va aloqa sohasi, 110 tasi (0,9 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1 001 tasi (8,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil yanvar-fevral oylarida 750 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 35,6 foizga oshgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (151 ta), Oqoltin (96 ta), Sirdaryo (86 ta) va Boyovut (74 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (19 ta), Guliston (49 ta) hamda Xovos (38 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (398 ta), sanoatda (105 ta), qurilishda (44 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (101 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (6 ta), axborot va aloqada (8 ta) hamda tashish va saqlashda (7 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-mart holatiga ko'ra 259 tani tashkil etib, ulardan 242 tasi yoki 93,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 52,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,3 % yoki 100 tasi sanoat, 16,1 % yoki 39 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,3 % yoki 37 tasi savdo, 20,7 % yoki 50 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,8 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 1 tasi, qurilish hamda 5,0 % yoki 12 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.



**2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarini soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	56	100,0
Oqoltin tumani	36	64,3
Boyovut tumani	1	1,8
Sayxunobod tumani	-	-
Guliston tumani	6	10,7
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	4	7,1
Sirdaryo tumani	1	1,8
Xovos tumani	-	-
Guliston shahar	7	12,5
Shirin shahar	-	-
Yangiyer shahar	1	1,8

2020-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Savdo



Sanoat



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Qurilish



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 37,5 % yoki 21 tasi sanoat, 17,9 % yoki 10 tasi savdo, 12,5 % yoki 7 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 1,8 % yoki 1 tasi qurilish, 23,2 % yoki 13 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 7,1 % yoki 4 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborotma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdag'i "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi Tel.(67)225-31-00**